

Surxondaryo viloyati Termiz tumani “Mustaqillik” MFY hududidan o‘tuvchi “Sh-2” ichki sug‘orish tarmog‘ining 800 metr qismini rekonstruksiya qilish (beton qoplama). 2022-yil 09-dekabr Termiz sh.

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi Suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligi “Surxondaryosuvqurilishinvest” DM nomidan Nizom asosida ish yurituvchi direktor **S.Avazov** bir tomondan, keyingi o‘rinlarda “**Buyurtmachi**” deb ataladi va “**Eshnazar invest**” MChJ bundan keyin “**Pudratchi**” deb ataluvchi Nizom asosida ish yurituvchi rahbari **E.Muqimov** mazkur **Surxondaryo viloyati Termiz tumani “Mustaqillik” MFY hududidan o‘tuvchi “Sh-2” ichki sug‘orish tarmog‘ining 800 metr qismini rekonstruksiya qilish (beton qoplama)**. ob‘ektini foydalanishga tayyor holda qurishga doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. Ta‘riflar

1.1. Mazkur shartnomada quyidagi ta‘riflar qo‘llaniladi:

Ijro hujjatlari – naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas‘ul bo‘lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o‘zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to‘g‘risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob‘ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o‘rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarni bajarishda qo‘llanilgan materiallar, konstruktsiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to‘g‘risidagi dalolatnomalar, ayrim mas‘uliyatli konstruktsiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to‘g‘risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to‘g‘risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar;

1.2. Qurilish maydoni – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo‘yicha “Buyurtmachi” tomonidan “Pudratchi”ga berilgan yer uchastkasi. Ob‘ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo‘yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo‘yiladi;

1.3. Vaqtinchalik inshootlar – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o‘rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan har qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

1.4. Berkitiladigan ishlar – sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo‘lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruktsiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

1.5. Shartnoma narxini bo‘lib chiqish – ishlarning har bir bosqichi yoki turlari qiymatini aniq belgilagan holda shartnoma bo‘yicha ob‘ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. Shartnoma mavzusi

2.1. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga ko‘ra loyihada ko‘zda tutilgan **Surxondaryo viloyati Termiz tumani “Mustaqillik” MFY hududidan o‘tuvchi “Sh-2” ichki sug‘orish tarmog‘ining 800 metr qismini rekonstruksiya qilish (beton qoplama)** ob‘ektini foydalanishga tayyor holda qurilish ishlarini bajarish majburiyatini oladi. Buyurtmachi esa Pudratchiga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to‘lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. Shartnoma bo‘yicha ishlar qiymati

3.1. Mazkur shartnoma bo‘yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan, Yopiq tanlov savdolarini o‘tkazish komissiyasining 2022-yil 05-dekabrda lot №200106-sonli yig‘ilish bayonnomasi bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig‘imlar va ajratmalarni o‘z ichiga olgan holda joriy narxlarda

478 400 000 so‘m (To‘rt yuz yetmish sakkiz million to‘rt yuz ming) so‘mni tashkil etadi. (Shundan QQS 62 400 000 (Oltmish ikki million to‘rt yuz ming) so‘mni tashkil qiladi.

Shundan 2022-yilda **478 400 000 so‘m (To‘rt yuz yetmish sakkiz million to‘rt yuz ming) so‘mni** tashkil etadi. (Shundan QQS 62 400 000 (Oltmish ikki million to‘rt yuz ming) so‘m.

Bajarilgan ish hisobidan 2022-yilda **478 400 000 so‘m (To‘rt yuz yetmish sakkiz million to‘rt yuz ming) so‘m** to‘lab beriladi;

3.2. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;

ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;
ob'ektning qurilishi bir yildan ortiqqa o'zgartirilganda.

3.3. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3.4. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. Pudratchining majburiyatlari

4.1. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

4.2. Barcha ishlarni mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari va jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

4.3. Qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruktsiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlash;

4.4. Qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

4.5. Pudratchi, Buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;

4.6. Qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof-muhitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuningdek yoritish chiroqlari o'rnatish;

4.7. Qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;

4.8. Mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruktsiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;

4.9. Qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

4.10. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda ob'ektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

V. Buyurtmachining majburiyatlari

5.1. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;

5.2. Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

5.3. Moliyalashtirish jadvaliga asosan Pudratchiga 20 bank ish kunida avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

5.4. Mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab 2 oy davomida Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

5.5. Ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funktsiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

VI. Ishlarni bajarish muddatlari

- 6.1. Shartnoma: milliy valyuta "so'mda" o'zaro hisob-kitob qilinganda - tomonlar uni imzolagan paytdan boshlab; keyinchalik EAVga konvertatsiya qilgan holda milliy valyutada "so'mda" o'zaro hisob-kitob qilinganda - shartnoma qonun hujjatlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi.
- 6.2. Pudratchi shartnomani imzolagan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.
- 6.3. Tanlov savdolari natijasi bo'yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqti ishlar boshlangan kundan e'tiboran 25 (Yigirma besh) kunni tashkil etadi.
- 6.4. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar, ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.
- 6.5 Qurilishni boshlanishi va qurilishni tugallanishi ishlarini bajarish hamda moliyalashtirish grafigi bilan belgilanadi.
- 6.6 Qurilishning boshlanishi 2022-yil 06-dekabr Qurilishni tugatib foydalanishga topshirish muddati 2022-yil 31-dekabr etib belgilandi. 2022-yilda belgilangan ishlar hajmi 2022-yil 25-dekabr bajarilib topshiriladi.
- 6.7. Shartnomaning amal qilish muddati 2022-yil 31-dekabrgacha.

VII. To'lovlar va hisob-kitoblar

- 7.1. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30 (o'ttiz) foizi miqdorida, 20 bank ish kunida avans mablag'larini o'tkazadi.
- 7.2 Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvallari asos hisoblanadi (1-2 ilova).
- 7.3. Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar sifati tekshirilgandan keyin, berilgan avansni hisobga olgan holda, ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvallariga muvofiq bajarilgan ish hajmining 65 foizi miqdorigacha 20 bank ish kunida amalga oshiriladi.
- 7.4. Ob'ektning shartnomaviy joriy qiymatining qolgan 5 foizi uchun Buyurtmachi va Pudratchi o'rtasidagi uzil-kesil hisob-kitob qurilish tugallangandan keyin va ob'ekt qabul komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingandan keyin ikki bosqichda:
ob'ekt qabul komissiyasi tomonidan qabul qilingan kundan boshlab bir oy mobaynida ishlar qiymatining kamida ___ foizi miqdorida:
mazkur shartnomada belgilangan kafolatli muddat tamom bo'lgandan keyin - ishlar qiymatining 5 foizigacha miqdorida, biroq moliya yili tugamasdan amalga oshiriladi;
- 7.5. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.
- 7.6. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab o'ttiz kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

VIII. Ishlarni bajarish

- 8.1. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.
- 8.2. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'liqsiz tanishish huquqiga egadir.
- 8.3. Pudratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.
- 8.4. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan ob'ektida ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

8.5. Pudratchi ob'ektda ishlarni olib borish tartibini davlat arxitektura-qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

8.6. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

8.7. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma bilan bir vaqtda Pudratchiga ortiqcha tuproq va qurilish axlatini joylashtirish va yetishmayotgan tuproqni qazib olish uchun joy ajratish to'g'risidagi hujjatlarni beradi.

8.8. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va ob'ektni privyazka qilish uchun Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi.

8.9. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari, o'lchamlari va bo'lish o'qlarining muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan bo'lish va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa, Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

8.10. Pudratchi geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarining joylashishi sxemalari va jadvallarini saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

8.11. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

8.12. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

8.13. Alohida mas'uliyatli konstruksiyalar va berkitiladigan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilish boshlanishidan 2 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va «Surxondaryo viloyat Qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi»ni yozma ravishda xabardor qiladi.

8.14. Qabul qilinadigan konstruksiyalar va ishlarning tayyorligi Buyurtmachi va Pudratchi tomonidan mas'ul konstruksiyalarni oraliq qabul qilish dalolatnomalari hamda ularning «Surxondaryo viloyat Qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi» bilan kelishgan shartlarida berkitiladigan ishlar tekshiruvini dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi.

8.15. Pudratchi Buyurtmachining ishlarni bajarish daftariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

8.16. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar hisoblanmaydi.

8.17. Agar Buyurtmachi Pudratchi yoki uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

8.18. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarni supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydondan qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

8.19. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'liq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

IX. Ishlarni qo'riqlash

9.1. Pudratchi ishlar boshlanishidan qurilish tugallanguncha va qurilishi tugallangan ob'ekt Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar chetlari to'silgan qurilish maydoni hududida materiallar, asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

9.2. Tiklangan binolar va imoratlar, shuningdek materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulk ob'ekt qabul qilib olinganidan keyin saqlanishi uchun Buyurtmachi javob beradi.

X. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari

10.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

10.2. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlarini bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

10.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

XI. Qurilishi tugallangan ob'ektning qabul qilib olish

11.1. Qurilishi tugallangan ob'ektning qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek qurilishi tugallangan ob'ektlarni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

11.2. Ob'ektlar ularning foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudratchining yozma bildirishnomasi Buyurtmachi tomonidan olingan kundan boshlab 5 kun mobaynida qabul qilib olinadi.

11.3. Pudratchi qurilishi tugallangan ob'ektning qabul qilib olish boshlanishidan 5 kun oldin mazkur shartnomaning V bo'limiga muvofiq Buyurtmachiga Buyurtmachi tomonidan belgilangan tarkibda ikki nusxada ijro hujjatlarini beradi. Pudratchi Buyurtmachiga ushbu hujjatlar to'plami amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

11.4. Qabul qilib olingan paytdan boshlab ob'ekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

XII. Kafolatlar

12.1. Pudratchi:

barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini; loyiha hujjatlariga hamda qurilish me'yorlari, qoidalar va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;

o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatlariga, davlat standartlariga hamda texnik shartlarga muvofiqligini;

ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;

ob'ektdan foydalanilganda muhandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

12.2. Ob'ekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati tomonlar qurilishi tugallangan ob'ektning qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida 12 oy etib belgilanadi. Ob'ekt tomonining kafolatli muddati kamida 12 oy etib belgilanadi.

Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

12.3. Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarining kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur shartnomaning VII bo'limida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudratchidan ushlab qolish huquqiga ega.

12.4. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish «Surxondaryo viloyat Qurilish soxasida xududiy nazorat inspeksiyasi» organlari tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha xo'jalik sudiga murojaat qilishini istisno etmaydi.

XIII. Shartnomani bekor qilish

13.1. Buyurtmachi:

shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

13.2. Pudratchi:

ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

13.3. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

13.4. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

13.5. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

13.6. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

XIV. Tomonlarning mulkiy javobgarligi

14.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

14.2. Mazkur shartnomaga ilova qilingan moliyalashtirish jadvalida ko'rsatilgan majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

14.3. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

14.4. Pudratchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha va shartnomaga ilova qilingan ishlarni bajarish grafigiga amal qilmagan taqdirda o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 20 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 20 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

14.5. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u holda Buyurtmachi «Davarxitekt-qurilishnazorat» inspeksiya sining xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

14.6. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

14.7. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

XV. Nizolarni hal etish tartibi

15.1. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Termiz tumanlararo Iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

XVI. Alohida shartlar

16.1. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

16.2. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

16.3. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

16.4. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday ahdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

16.5. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi, Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

16.6. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

16.7. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 (ikki) nusxada tuzildi.

XVII. Korrupsiyaga qarshi kurashish va boshqa shartlar

17.1. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday noqonuniy harakatlarni amalga oshirmaydi, shu jumladan pora berishni taklif qilmaydi, tovlamachilik qilmaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki hodimlari o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shahsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi uchun moddiy manfaatdor bo'lmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha tegishli choralarni ko'rilishiga kafolat beradi.

8.2. Ikki tomon

ning o'zaro yozma kelishuviga asosan mazkur shartnomaga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar qonuniy kuchga ega bo'ladi. O'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi haqidagi qo'shimcha kelishuv shartnomasi ushbu shartnomaga ilova qilinishi ham mumkin. Qilingan ilova ikki tomonning muxri va imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi shart.

8.3. Shartnomada ko'rsatilgan mablag'dan ortiqcha bajarilgan ish hajmining mablag'ini buyurtmachi to'lab berishni o'z zimmasiga olmaydi.

Pudrat shartnomasiga ilova qilinadigan hujjatlar ro'yxati:

1. Ishlarni (bosqichlarga bo'lgan xolda) bajarish jadvali.
2. Ishlarni (bosqichlarga bo'lgan xolda) moliyalashtirish jadvali.

XVIII. Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzillari:

“BUYURTMACHI”

“Surxondaryo suvqurilish invest” DM
h/r 1000 1086 0224 0170 4980 5170 003
Surxondaryo viloyat G'aznachilik boshqar
INN: 200 473 879. OKONX: 69000
O'z. Res Moliya Vazirligi G'aznachiligi
h/r: 2340 2000 3001 0000 1010
MB BB XKKM Toshkent sh.
MFO: 00014 INN: 201 122 919



“PUDRATCHI”

“Eshnazar invest” MChJ
Jarqo'rg'on sh. Navro'z ko'chasi 74-uy
tel: (93)-796-01-10
h/r: 2020 8000 3002 4340 9001
“Milliy” bank Termiz f-li.
MFO: 00324. INN: 302 665 072
OKONX: 61100.



09 dekabr 2022-yildagi
№ 163 shartnomaga 1-ilova

Surxondaryo viloyati Termiz tumani "Mustaqillik" MFY hududidan o'tuvchi
"Sh-2" ichki sug'orish tarmog'ining 800 metr qismini rekonstruksiya qilish (beton qoplama).
qilish ob'ektida qurilish montaj ishlarini bajarish
Г Р А Ф И Г И.

Sh/Xv 1000 1086 0224 0170 4980 5170 003

(Ming so'mda)

L/R	Ish turlari va shartlari	O'l birl.	2022 yil oylari				2022 yilda Jami	XAMMASI:
			Sentabr	Oktabr	Noyabr	Dekabr		
1	Surxondaryo viloyati Termiz tumani "Mustaqillik" MFY hududidan o'tuvchi "Sh-2" ichki sug'orish tarmog'ining 800 metr qismini rekonstruksiya qilish (beton qoplama).	Ob'ekt				478 400,000	478 400,000	
	JAMI:					478 400,000	478 400,000	

Buyurtmachi:
"Surxondaryo yosuvqurilishinvest"
DM direktori



S. Avazov

Pudratchi:

"Eshnazar invest" MChJ
boshlig'i



E. Muqimov

"09" dekabr 2022-yildagi
№ 163 shartnomaga 2-ilova

Surxondaryo viloyati Termiz tumani "Mustaqillik" MFY hududidan o'tuvchi
"Sh-2" ichki sug'orish tarmog'ining 800 metr qismini rekonstruksiya qilish (beton qoplama).
objektini 2022-yilda moliyalashtirish
G R A F I G I.

Sh.Xv. 1000 1086 0224 0170 4980 5170 003

(Ming so'ndu)

№	Moliyalashtirish manbalari va shartlari	2022 y oylari				2022 yilda Jami	5% kafolat mablag'i	XAMMASI:
		Avqust	Sentabr	Oktabr	NOYABR			
1	30% xajmda bunyak					143 520,000	143 520,000	143 520,000
2	65% gacha joriy moliyalashtirish					310 960,000	23 920,000	310 960,000
3	5% kafolat muddati tugaganidan keyin					23 920,000	23 920,000	23 920,000
XAMMASI:						454 480,000	23 920,000	478 400,000

Buyurtmachi:

"Surxondaryosuvqurilishinvest"

DM direktori



S. AVAZOV

Pudratchi:

"Eshnazar invest" MChJ

boshlig'i



E. Muqimov

**Қурилиш-монтаж қалтисликларини суғурталаш бўйича
АРИЗА-СЎРОВНОМА**

1. УМУМИЙ МАЪЛУМОТ

Суғурта қилдирувчининг номи ва жойлашган манзили:	«ESHNAZAR INVEST» МЧЖ.
Қурилиш пудрати шартномаси номи, санаси ва рақами:	09.12.2022 йилдаги №163 сонли шартнома
Қурилишнинг шартномавий (умумий) қиймати:	478400000 (Тўрт юз етти миллион саккиз миллион юз сиккиз) сўм.
Қурилиш майдони манзили (суғурта ҳудуди):	Сурхон дарё белидаги Тўртинчи туманидаги 10-сонли МФУ ҳудуди, умумий м-2 вақит суғуртаси.

2. ШАРТНОМА ПРЕДМЕТИ

Суғурта предметлари	А) Қурилиш ишлари (яқуний ва дастлабки, жумладан бунда фойдаланиладиган барча материаллар); Б) Қурилиш материаллари, ускуналар, машинлар, техника, уларнинг эҳтиёт қисмлари ва бошқа; В) Суғурта ҳодисасидан кейин ҳудудни тозалаш харажатлари; Г) Суғурта қилдирувчининг учинчи шахслар олдидаги фуқаролик жавобгарлиги қалтислиги
---------------------	--

3. СУҒУРТА ПУЛИ ВА ЖАВОБГАРЛИК ЛИМИТЛАРИ

Жами суғурта пули, шу жумладан:	398 666 000 (уч юз тўрт юз саккиз миллион олмиш юз сиккиз) сўм. (қурилиш объекти қийматининг 80% дан ошмаган миқдорда)
Суғурта қилдирувчининг учинчи шахслар олдидаги фуқаролик жавобгарлиги қалтислиги бўйича суғурта товони лимити:	-----
Суғурта ҳодисасидан кейин ҳудудни тозалаш харажатлари:	суғурта пулининг 2% дан ошмаган миқдорда
Битта суғурта ҳодисаси бўйича суғурта товони лимити:	(қурилиш объекти қийматининг 80% дан ошмаган миқдорда)

4. ҲАРАЖАТЛАРНИНГ ҚИЙМАТИ

Ҳаражат қилувчи ва ҳаражат қилинган объектнинг ҳақиқий қиймати:	Сўм
Суғурта мукофоти:	1300 000 (Бир миллион уч юз сиккиз) сўм.
Суғурта муддати:	

5. СУҒУРТА ҚИЛДИРУВЧИНING ЮРИДИК МАНЗИЛИ ВА БАНК РЕКВИЗИТЛАРИ



Манзил:	Жарниурсой туманидаги Қавнуз шаҳ.
Телефон:	83 436 0110
Банк:	
Ҳисоб рақами:	10202 000 300 243 408001
Банк коди:	00524
СТИР:	302 665 072

6. ТОМОНЛАРНИНГ ИМЗОЛАРИ

Ушбу билан Суғурта қилдирувчи томонидан ариза-сўровномада хабар қилинаётган маълумотлар ҳақиқий ва ишончли эканлиги ҳамда шартнома тузишга ва имзолашга асос бўла олиши тасдиқланади.

СУҒУРТА ҚИЛДИРУВЧИ:

Юқорида кўрсатилган шартларда суғурта ҳимоясини тақдим этишингизни сўрайман:

Директор	Э. Муҳаммадов	
СУҒУРТАЛОВЧИ НОМИДАН:		
Директор	Каримов Ф.Т.	



**ҚУРИЛИШ-МОНТАЖ ТАВАККАЛЧИЛИКЛАРИНИ МАЖБУРИЙ СУҒУРТАЛАШ
ШАРТНОМАСИ №46/24/_____**

Термиз ш.

2022 й. «___» _____

Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг 2022 йил 11 февралдаги СФ серияли 00028-сонли лицензияси асосида фаолият кўрсатувчи, қуйида Суғурталовчи деб аталувчи «**GROSS SUG`URTA KOMPANIYASI**» АЖ номидан 2022 йил «10» февралдаги № 107-сонли ишончнома асосида фаолият юритувчи Сурхондарё Сугурта Маркази филиали директори **Каримов Ф.Т.** бир томондан ва қуйида «Суғурта қилдирувчи» деб аталувчи **ESPINAZAR INVEST HCS J** номидан Низом асосида фаолият юритувчи раҳбари **Э. Муҳаммадов**, бошқа томондан, биргаликда «Томонлар», алоҳида «Томон» деб аталиб, ушбу Қурилиш-монтаж таваккалчиликларини мажбурий Суғурталаш шартномасини (қуйида – Суғурта шартномаси) қуйидаги шартларда туздилар.

1-БЎЛИМ. ШАРТНОМА ПРЕДМЕТИ

1.1. Ушбу Суғурта шартномасининг предмети бўлиб қурилиш майдонида суғурта воқеалари натижасида мол-мулкнинг йўқотилиши (нобуд бўлиши) ёки шикастланиши таваккалчилигидан суғурталаш, шунингдек қурилиш-монтаж ишларини амалга оширишда Суғурта қилдирувчининг учинчи шахслар олдидаги фуқаролик жавобгарлигини суғурталаш ҳисобланиб, шу муносабат билан Суғурталовчи ушбу Суғурта шартномасида келтирилган шартлар ва/ёки ушбу Суғурта шартномасининг ажралмас қисми ҳисобланган шартлар, истиснолар ва иловаларга мувофиқ суғурта ҳодисаси содир бўлганда Суғурта қилдирувчи/Наф олувчига суғурта қилдирувчининг фуқаролик жавобгарлигини юзага келиши билан боғлиқ, Суғурта қилдирувчи эса суғурта мукофотини ушбу Суғурта шартномасида кўрсатилган тартиб ва муддатда тўлаш мажбуриятини олади.

1.2. Ушбу Суғурта шартномасига мувофиқ суғурта объекти бўлиб қурилиш майдонидаги ва қурилиш ва монтаж предмети бўлган бинолар, иншоотлар, усқуналар, машиналар, уларнинг эҳтиёт қисмлари, материаллар ва бошқа мол-мулк билан боғлиқ, шунингдек қурилиш-монтаж ишларини амалга оширишда учинчи шахсларнинг ҳаёти, соғлиги ва мол-мулкига зарар етганлиги учун Суғурта қилдирувчининг фуқаролик жавобгарлигини юзага келиши билан боғлиқ, Суғурта қилдирувчининг/Наф олувчининг Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатларига зид бўлмаган мулкӣ манфаатлари ҳисобланади.

1.3. Ушбу Суғурта шартномаси билан суғурталанган қурилиш-монтаж ишлари объекти ушбу Суғурта шартномасининг 1-иловасида кўрсатилган.

1.4. Ушбу Суғурта шартномасига мувофиқ Суғурта қилдирувчи Суғурталовчига Ариза-сўровномада ва ҳар қандай бошқа иловаларда тақдим этган ҳужжатлар ва маълумотлар ушбу Суғурта шартномасининг ажралмас қисми эканлигини, шкнунингдек ишончли ва ҳақиқатга тўғри келадиган маълумотларга эга эканлигини тасдиқлайди.

2-БЎЛИМ. УМУМИЙ АТАМАЛАР

2.1. **Суғурта предмети** – ушбу Суғурта шартномасининг 1-иловасида кўрсатилган қурилиш-монтаж ишларини амалга оширишда суғурта жойидаги суғуртага қабул қилинаётган мол-мулк, шунингдек Суғурта қилдирувчининг фуқаролик жавобгарлиги.

2.2. **Қурилишнинг шартномавий қиймати** – аввал бажарилган иш ҳажмини, шу жумладан материалларни ҳисобга олган ҳолда қурилаётган объектнинг тўлиқ ёки режалаштирилган даврда қуриладиган қисмининг қиймати.

2.3. **Суғурта пули** – ушбу Суғурта шартномаси билан белгиланган, суғурта объекти суғурталанган, Суғурталовчининг ушбу Суғурта шартномаси бўйича Суғурта қилдирувчи олдидаги мажбуриятларининг чегарасини акс эттирувчи пул маблағлари миқдори.

2.4. **Жавобгарлик бўйича суғурта товони лимити** – қурилиш-монтаж ишларини амалга оширишда учинчи шахсларнинг ҳаёти, соғлиги ва мол-мулкига зарар етказганлик учун Суғурта қилдирувчининг жавобгарлигини суғурталаш бўйича Суғурталовчи мажбуриятларининг чегарасини ўзида акс эттирувчи пул маблағлари миқдори.

2.5. **Суғурта мукофоти** – Суғурта қилдирувчи Суғурталовчига ушбу Суғурта шартномасида келишилган тартиб ва муддатда тўлаши шарт бўлган суғурта учун тўлов.

2.6. **Суғурта воқеаси** – суғурта ҳодисаси аломатларига эга ва суғурта муддатида содир бўлган воқеа.

2.7. **Суғурта ҳодисаси** – Суғурта шартномасида кўрсатилган, содир бўлган воқеа бўлиб, у содир бўлиши билан Суғурталовчининг Суғурта қилдирувчи/Наф олувчи/учинчи шахсларга суғурта товони тўлаш мажбурияти юзага келади.

2.8. **Суғурта полиси** – Суғурталовчининг Суғурта шартномаси бўйича мажбуриятлари кучга кирганлигини тасдиқловчи, суғурта мукофоти тўлиқ ҳажмда тўланганидан кейин Суғурта қилдирувчига бериладиган ҳужжат.

2.9. **Суғурта шартномаси муддати** – суғурта шартномаси амалда бўладиган давр.

2.10. **Суғурта муддати** – суғурта полисида кўрсатилган давр. Ушбу суғурта шартномаси билан шартлашилган суғурта суғурта шартномаси кучга киргандан кейин содир бўлган суғурта ҳодисаларига нисбатан қўлланилади ва суғурта полисида кўрсатилган суғурта муддати мобайнида амалда бўлади.

2.11. **Суғурта товони** – суғурта ҳодисаси содир бўлганда суғурта пули ва суғурта товони лимити чегарасида Суғурта қилдирувчи/учинчи шахс кўрган зарарни қоплаш учун Суғурталовчи тўлайдиган пул маблағлари миқдори.

2.12. **Суғурта ҳудуди** – ушбу Суғурта шартномасининг 1-иловасида кўрсатилган қурилиш майдони жойлашган, Суғурталовчи суғурта ҳимоясини тақдим этадиган жой.

2.13. **Учинчи шахслар** – ушбу Суғурта шартномасида кўрсатилган суғурта ҳодисаси натижасида ҳаёти, соғлиги ёки мол-мулкига зарар етказилган жисмоний шахслар, шунингдек Суғурта қилдирувчи/Наф олувчи билан шартномавий муносабатларда бўлмаган мол-мулкига зарар етказилган юридик шахслар. Суғурта қилдирувчи, унинг оила аъзолари, ходимлари, шунингдек Суғурта қилдирувчининг номидан чиқувчи жисмоний ёки юридик шахслар учинчи шахслар ҳисобланмайди.

2.14. **Наф олувчи** – суғурталанган мол-мулкни асралишида қонун ҳужжатлари, бошқа ҳуқуқий ҳужжат ёки шартномага асосланган манфаати бўлган, фойдасига ушбу Суғурта шартномаси тузилган шахс.

2.15. **Бир ҳодиса бўйича суғурта товони лимити** – битта суғурта ҳодисаси натижасида келиб чиққан барча зарарлар бўйича Суғурталовчининг мажбурияти ҳажмининг чегарасини акс эттирувчи пул маблағлари миқдори.

3-БЎЛИМ. СУҒУРТА ҲИМОЯСИ

3.1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 20 декабрдаги 532-сонли Қарорига, шунингдек ушбу Суғурта шартномасининг муддатлари, шартлари ва истисноларига мувофиқ Суғурталовчи қуйидагилар учун суғурта ҳимоясини тақдим этади:

3.1.1. Суғурта қилдирувчининг (Наф олувчининг) мулкӣ манфаатларига бевосита қуйидаги гуруҳдаги таваккалчиликлардан моддий зарар етганда:

- ёнғин, яшин, портлаш, учувчи аппаратларнинг қулаши, ўзидан-ўзи ёниши;
- ўғирлик ва учинчи шахсларнинг ёвуз ҳаракатлари;

- сув тошқини ва сув босиши, қувурлар ёрилиши;
- бўрон, довул;
- зилзила, сел, қор қўчиши, ер чўкиши, кўчки, ер силжиши;
- қисқа туташув, ортиқча кучланиш, электр ёйлари;
- машина ва механизмларнинг, қурилиш материаллари ва конструкцияларининг қулаши;
- билмай туриб ишлатилган нуқсонли материаллар ва конструкциялардан зарар етиши.

3.1.2. Суғурта қилдирувчининг мулкый манфаатлариغا қурилиш-монтаж ишларини амалга оширишда Суғурта қилдирувчи қуйдагиларни қоплаб бериши мажбуриятини юзага келиши билан унинг фуқаролик жавобгарлигини юзага келиши:

- учинчи шахсларнинг ҳаёти, соғлиғига зарар етиши;
- суғурта амалда бўлган муддатда ушбу Суғурта шартномаси бўйича суғурталанган қурилиш ёки монтаж ишларини амалга оширишдан қурилиш майдони ёки унга бевосита қўшни ҳудуддаги учинчи шахсларнинг мол-мулкига зарар ёки шикаст етказилиши.

4-БЎЛИМ. УМУМИЙ ИСТИСНОЛАР

4.1. Ушбу Суғурта шартномасига мувофиқ қуйдагиларнинг бевосита ёки билвосита натижасида юзага келган зарарлар қопланмайди:

- турли ҳарбий ҳаракатлар ёки ҳарбий тадбирлар ва уларнинг оқибатлари, миналар, бомбалар, бошқа уруш қуроллари таъсири, халқ тартибсизликлари иш ташлашлар, террорчилик, мусодара, реквизиция қилиниши, ҳибсга олиниши, мол-мулкни фуқаролик ҳуқуқоти ва қандайдир сиёсий ташкилот топшириғига кўра йўқотилиши ёки шикастланиши;
- ядровий портлаш, радиация, радиоактив заҳарланиш;
- суғурта қилдирувчи, фойдасига суғурта амалга оширилган шахснинг ёки уларнинг вакилининг қасддан қилган ҳаракатлари ёки қўпол эҳтиёткорсизлиги;
- суғурта қилдирувчига, фойдасига суғурта амалга оширилган шахсга ёки уларнинг вакилига суғурта ҳодисаси содир бўлишдан аввал маълум бўлган хато, етишмовчилик ёки нуқсон;
- лойиҳа-смета ҳужжатларида кўрсатилмаган ишларни қисман ёки умумий тўхтатилиши;
- занглаши, чириши, табиий эскириши, ўздан-ўзи ёниши ёки алоҳида предметларнинг бошқа табиий хусусиятлари, ушбу ҳодисалардан келиб чиққан бахтсиз ҳодисалар натижасида бошқа суғурталанган предметлар шикастланишидан кўрилган зарар қопланиши шарт билан;
- лойиҳа-смета ҳужжатларида кўрсатилмаган тажриба ёки тадқиқот ишлари;
- қурилиш техникаси ва транспорт воситаларининг ташқи омиллар таъсирида бўлмаган ички бузилишлари.

4.2. Ушбу Суғурта шартномаси билан қуйдагилар ҳам қопланмайди:

- қурилишда фойдаланилган нуқсонли материаллар, предметлар ёки уларнинг қисмларини алмаштириш, таъмирлаш ва тўғирлаш қиймати, шунингдек ишларни амалга оширишда хатоларни бартараф этиш қиймати. Бу истисно бевосита нуқсонли материаллар ва предметлар билан чекланиб, материаллар ва ишлардаги бундай нуқсонлар натижасида тўғри қурилган объектлар ва предметларга етказилган зарарни қопланишини истисно қилмайди.
- ёнилғи-мойлаш материаллари, кимёвий моддалар, совитувчи суюқликлар ва бошқа ёрдамчи материаллар, суғурталанган объект ишлаб чиқарган маҳсулотлар (қурилиш объектларининг суғурталанган таваккалчиликлари учун зарур бўлганларидан ташқари), қимматбаҳо металллар, тошлар, санъат асарлари, ҳужжатлар ва қимматли қоғозларнинг йўқотилиши ёки шикастланиши, шунингдек фақатгина инвентаризация пайтида аниқланган зарар ва йўқотилган фойда ёки шартномавий жарималар каби билвосита зарарлар.

4.3. Суғурталовчи Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатларида кўрсатилган бошқа ҳолатларда ҳам суғурта товони тўловидан озод бўлади.

5-БЎЛИМ. СУГУРТА ПУЛИ ВА СУГУРТА МУКОФОТИ МИҚДОРИ

5.1. Жами суғурта пули Суғурта шартномасининг 1-иловасида кўрсатилган.

5.2. Жавобгарлик бўйича суғурта товони лимити, бир ҳодиса бўйича суғурта товони лимити ва суғурта ҳодисасидан кейин ҳудудни тозалаш бўйича харажатлар чегараси Суғурта шартномасининг 1-иловасида белгиланган.

5.3. Ушбу Суғурта шартномаси бўйича суғурта мукофоти ушбу Суғурта шартномасининг 1-иловасида кўрсатилган. Бунда суғурта мукофоти (ёки унинг биринчи қисми) томонлар суғурта шартномасини имзолаганларидан кейин 3 (уч) иш кунидан ошмаган муддатда тўланиши шарт.

5.4. Агар мўлжалланган қурилиш ишларини тезлаштириш натижасида ишлар ушбу Суғурта шартномасида кўрсатилган суғурта муддати тугашидан аввал якунланса, суғурта мукофоти қайтарилмайди.

5.5. Қурилиш объекти Суғурта қилдирувчига ёки фойдасига ушбу Суғурта шартномаси тузилган шахсга боғлиқ бўлмаган сабабларга кўра консервация қилинса, Суғурталовчи суғурта мукофотининг суғурта шартномаси бўйича қолган муддатга мутаносиб ҳисобланган қисмини қайтаради.

5.6. Ушбу Суғурта шартномаси бўйича барча ўзаро ҳисоб-китоблар ушбу Суғурта шартномасининг 1-иловасида кўрсатилган валютада амалга оширилади.

6-БЎЛИМ. ШАРТНОМА КУЧГА КИРИШИ ВА АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ

6.1. Ушбу Суғурта шартномаси келишилган суғурта мукофоти ёки унинг биринчи қисми ўз вақтида тўланиши шарт билан томонлар уни имзолаганларидан кейин кучга киради ва ушбу Шартноманинг 1-иловасида кўрсатилган муддат ичида амалда бўлади.

6.2. Суғурта мукофоти ёки унинг биринчи қисми ўз вақтидан кейин тўланган тақдирда ушбу Суғурта шартномаси келишилган суғурта мукофоти ёки унинг биринчи қисми тўланган пайтдан бошлаб кучга киради ва ушбу Шартноманинг 1-иловасида кўрсатилган муддат ичида амалда бўлади. Суғурта мукофоти ёки унинг биринчи қисми тўланган пайт бўлиб Суғурталовчининг ёки унинг агентининг банк ҳисоб рақамига пул маблағлари келиб тушган кун ҳисобланади. Ушбу Шартнома билан шартлашилган суғурта суғурта шартномаси кучга киргандан кейин содир бўлган суғурта шартномаларига нисбатан қўлланилади ва суғурта полисида кўрсатилган суғурта муддати мобайнида амалда бўлади.

6.3. Суғурталовчининг суғурта товони тўлаш бўйича мажбуриятлари қурилиш, монтаж, усқуналарнинг дастлабки ва ишчи синовларининг тўлиқ муддати мобайнида амалда бўлади ва объектни топшириш пайтида, суғурта муддати тугаши санасидан кечикмай тугайди.

6.4. Суғурта полиси суғурта мукофоти тўланган кундан бошлаб 3 иш куни ичида берилади. Суғурта мукофоти тўлиқ тўланмаган тақдирда Суғурта полиси суғурта мукофотининг тўланган қисмига мутаносиб муддат учун берилади. Суғурта полиси йўқолган тақдирда унинг дубликатини берилиши Суғурталовчи томонидан Суғурта қилдирувчининг ёзма аризаси асосида кўриб чиқилади. Ариза келиб тушган кундан бошлаб 3 (уч) банк куни ичида Суғурта полисининг дубликати берилади, ундан сўнг йўқолган Суғурта полиси ҳақиқий эмас бўлиб ҳисобланади.

6.5. Агар Суғурта қилдирувчи ва/ёки Наф олувчига боғлиқ бўлмаган сабабларга кўра ишлар уч ойдан ортиқ муддатга тўхтатилса, Суғурта шартномаси томонлар ўртасидаги қўшимча келишувга мувофиқ кўрсатилган даврга тўхтатилиши мумкин ва ишлар қайта бошланганда Суғурталовчини ёзма равишда хабардор қилингандан кейин тўхтатилган даврга суғурта муддати қўшимча суғурта мукофоти тўловисиз узайтирилиши мумкин.

6.6. Барча бошқа ҳолатларда суғурта муддати томонларнинг келишуви билан, миқдори томонлар келишуви билан белгиланган қўшимча суғурта мукофоти тўлаган ҳолда узайтирилиши мумкин.

7-БЎЛИМ. СУГУРТА ШАРТНОМАСИНИ БЕКОР ҚИЛИНИШИ ВА ТУГАТИЛИШИ

7.1. Ушбу Суғурта шартномаси қуйдаги ҳолларда тугатилади:

- суғурта муддати туганганда;
- Суғурта қилдирувчи Наф олувчи олдидаги қурилиш пудрати шартномаси бўйича мажбуриятларни суғурта муддати ўтишидан аввал тўлиқ ҳажмда бажарганда;
- Суғурталовчи ушбу Суғурта шартномаси бўйича Суғурта қилдирувчи/учинчи шахс олдидаги мажбуриятларни тўлиқ ҳажмда

бажарганда;

г) Суғурта қилдирувчи суғурта мукофотини ушбу Суғурта шартномаси билан белгиланган тартиб ва муддатда тўламаганда;

д) ушбу Суғурта шартномаси суд тарафидан ҳақиқий эмаслиги ҳақида қарор қабул қилинганда;

е) Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатларида кўрсатилган бошқа ҳолатларда;

ж) Суғурта шартномаси муддатидан аввал томонлардан бирининг ёзма аризаси асосида, бекор қилиш мўлжалланган санага қадар 15 (ўн беш) кундан кечиктирмасдан хабар қилиниши шarti билан, бекор қилиниши мумкин.

Ушбу Суғурта шартномаси муддатидан аввал бекор бўлган тақдирда суғурта мукофоти Суғурталовчининг сарф-харажатлари чегириб қолинган ҳолда суғурта муддатининг ўтмаган даври учун қайтарилади.

8-БЎЛИМ. ТОМОНЛАРНИНГ ҲУҚУҚ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИ

8.1. Суғурталовчининг ҳуқуқлари:

8.1.1. суғурталанган мол-мулкнинг ҳолатини, шу жумладан Ариза-сўровномада кўрсатилган шартларга мос келишини текшириши;

8.1.2. Суғурта қилдирувчи ёки Наф олувчи ушбу Суғурта шартномаси талабларини бажаришини текшириши;

8.1.3. суғурталанган мол-мулкни қутқариш ва асралишида бу учун керак чоарларни кўриш ва кўрсатиш орқали иштирок этиши. Суғурталовчининг ёки унинг вакилларининг бу ҳаракатлари суғурталовчининг суғурта товони тўлаш мажбуриятини тан олиш бўлиб ҳисобланмайди;

8.1.4. суғурта ҳодисаси қуйидагилар натижасида содир бўлса, суғурта товони тўловини рад этиши:

а) Суғурта қилдирувчининг ёки фойдасига суғурта шартномаси тузилган шахснинг суғурта ҳодисаси содир бўлишига йўналтирилган исботланган қасддан қилган ҳаракатлари, у ўз фуқаролик бурчини адо этиши ёки суғурта қилдирувчи ёхуд учинчи шахсларнинг ҳаёти, соғлиғи, шаъни ва номусини ҳимоя қилиши ҳолатлари бундан мустасно;

б) Суғурталовчига суғурта объекти, таваккалчилиги даражаси ва унинг оқибатлари ҳақида аввалдан ёлғон эканлиги маълум бўлган маълумотларни тақдим этилиши;

в) Суғурталовчини Суғурта қилдирувчи ва фойдасига суғурта тузилган шахсларга маълум бўлган таваккалчилик даражасидаги сезиларли ўзгаришлар, хатолар, камчиликлар ва нуқсонлар ҳақида хабардор қилмаслиги ва суғурталовчи ёки унинг вакили зарар тавсилотлари, тавсифи ва миқдорини аниқлашда иштирок этишга қаршилик қилиши;

г) Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатларида кўрсатилган бошқа ҳолатларда.

8.1.5. Суғурталовчи Суғурта қилдирувчи ёки фойдасига Суғурта шартномаси тузилган шахс зарарни олдини олиш ва қисқартириш учун оқилона чоралар кўрмаслиги билан қанчалик зарар етказилса, шу даражада суғурта товони тўловини рад этиш ҳуқуқига эга.

8.1.6. Суғурта мукофотини (ёки унинг қисмини) ушбу шартномада келишилган муддатда тўламаган тақдирда ушбу суғурта шартномасининг амал қилишини бир томонлама бекор қилиб, шу муносабат билан Суғурта шартномаси тўлов муддати тугаган пайдан (навбатдаги тўлиниши керак булган санадан) бошлаб ўз юридик кучини йўқотади (автоматик тарзда бекор бўлади) ҳамда Суғурталовчи учун суғурта товони тўлови бўйича ҳеч қандай мажбуриятлар келтириб чиқармайди.

8.2. Суғурталовчининг мажбуриятлари:

8.2.1. Суғурта полисини ушбу Суғурта шартномаси билан белгиланган муддатда бериши;

8.2.2. шикастланган мол-мулкни Суғурта қилдирувчидан суғурта ҳодисаси содир бўлганлиги ҳақида ёзма хабарномани олгандан кейин 3 иш куни ичида кўриқдан ўтказиши;

8.2.3. барча зарур ҳужжатларни олиб, суғурта ҳодисаси содир бўлганлигини тан олгандан кейин суғурта тўловини ушбу Суғурта шартномасида келишилган миқдор ва муддатда амалга ошириши;

8.2.4. ушбу Суғурта шартномаси амалда бўлган муддатда Суғурта қилдирувчининг сўровига кўра Суғурта қилдирувчига суғурта масалалари бўйича маслаҳатлар бериши;

8.2.5. Суғурта қилдирувчидан Суғурта шартномаси амалда бўлган муддатда олинган ахборотни сир сақлаши, Суғурталовчи Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатларига мувофиқ ахборотни давлат идораларига тақдим этиши шарт бўлган ҳолатлари бундан мустасно.

8.3. Суғурта қилдирувчининг ҳуқуқлари:

8.3.1. Суғурталовчи билан келишилган ҳолда ушбу суғурта шартномасига ўзгаришлар ва қўшимчалар киритиши;

8.3.2. Суғурталовчидан суғурта масалалари юзасидан маслаҳатлар олиши;

8.3.3. Суғурта полиси йўқолган тақдирда Суғурта полисни дубликатини олиши.

8.4. Суғурта қилдирувчининг мажбуриятлари:

8.4.1. ушбу Суғурта шартномасида белгиланган тартиб ва муддатда суғурта мукофотини тўлаши;

8.4.2. Суғурталовчини томонлар ушбу Суғурта шартномасини имзоланганларидан кейин суғурта пули, шунингдек таваккалчиликда содир бўлган ўзгаришлар ҳақида хабардор қилиши. Объект қийматини 10 (ўн) % ортиқ ошишига олиб келган ўзгаришлар Суғурталовчига ушбу Суғурта шартномаси шартларини қайта кўриб чиқиш имкониятини беради.

8.4.3. Суғурта шартномасини тузишда Суғурталовчига таваккалчилик даражасига таъсир этувчи омилларни аниқлашда аҳамиятга эга ишончли ахборотни тақдим этиши.

9-БЎЛИМ. ДАЪВОЛАРНИ КЎРИБ ЧИҚИШ ТАРТИБИ

9.1. Суғурта ҳодисаси содир бўлганда Суғурта қилдирувчи ёки Наф олувчи қуйидагиларни амалга ошириши шарт:

а) Суғурталовчидан сўровлар ёки талабларни кутмасдан етиши мумкин бўлган зарарни камайтириш бўйича имкони мавжуд чораларни кўриши;

б) Суғурталовчини етти календарь кунда содир бўлган ҳолат тўғрисида ёзма хабардор қилиши;

в) Суғурталовчини ушбу мол-мулк бўйича бошқа суғурта ташкилотлари билан тузилган барча суғурта шартномалари ҳақида хабардор қилиши;

г) Суғурталовчига барча таснифлар, юк ҳужжатлари, дубликатлар ёки нусхаларни ҳамда суғурта ҳодисаси содир бўлиши тавсилотлари ва сабаблари ҳақида ҳукм чиқаришга имкон берувчи бошқа зарур ҳужжатларни тақдим этиши;

д) зарарга тааллуқли барча хатлар, даъволар, буйруқлар ёки бошқа ҳужжатларни тақдим этиши.

9.2. Суғурта қилдирувчи суғурта ҳодисаси оқибатларини имкони борича Суғурталовчининг вакиллари шикастланган мол-мулкни ва воа жойини кўриқдан ўтказиб, суғурта ҳодисаси оқибатларини бартараф этиш бўйича ўз ҳаракатларини Суғурталовчи билан ёзма равишда келишгандан кейин бартараф этишга киришиши мумкин.

9.3. Суғурта қилдирувчининг суғурта ҳодисаси содир бўлганлиги ҳақида ёзма аризасини ва суғурта товони тўлови масаласини ҳал этиш учун зарур барча ҳужжатларни олгандан кейин таркиби Суғурта қилдирувчи ва Суғурталовчининг вакилларидан, зарур ҳолатларда манфаатдор шахснинг ҳисобидан мутасадди идораларнинг вакилларидан иборат комиссия тузилади.

9.4. Суғурталовчининг вакиллари зарар тавсилотлари, тавсифи ва миқдорини аниқлаш учун суғурта ҳодисаси содир бўлган жойни ва Суғурта қилдирувчининг ва фойдасига ушбу Суғурта шартномаси тузилган шахсларнинг тегишли ҳужжатларини текшириш имкониятига эга бўлиши шарт.

9.5. Суғурталовчи ва Суғурта қилдирувчи ўртасида зарар тавсилоти, тавсифи ва миқдори юзасидан келишмовчилик келиб чиқса, масала эксперт комиссияси тарафидан ҳал этилади. Ҳар бир томон ўз экспертини тайинлайди ва бу ҳақда бошқа томонни хабардор қилади ҳамда ўз эксперти хизмат ҳақини тўлайди.

Бу қоида келишмовчиларни қонун ҳужжатларида назарда тутилган бошқа шаклларда ҳал этиш бўйича томонларнинг ҳуқуқларини чекламайди.

9.6. Суғурталовчининг ёзма розилигисиз Суғурта қилдирувчи ва унинг номидан ҳеч ким ён босиш, таклифлар, ваъдалар бериш, тўловларни амалга ошириш мажбуриятини қабул қилиш ёки жавобгарликни тан олиш ҳуқуқига эга эмас.

9.7. Ушбу воқеага тааллуқли барча тавсилотлар ўрганилгандан кейин Суғурталовчи тарафидан юзага келган зарарни суғурта ҳодисаси деб тан олиш ёки тан олмаслик ҳақида қарор қабул қилинади.

9.8. Суғурталовчининг суғурта товонини рад этиш ёки тўлаш ҳақидаги қарори суғурта қилдирувчига у суғурта товонини тўлашни сўраб муурожаат этганидан кейин ўн беш кундан кечиктирмай хабар қилиниши ва рад этиш сабабларининг далили исботларини ўз ичига олган бўлиши лозим.

10-БЎЛИМ. СУҒУРТА ТОВОНИ МИҚДОРИ ВА ТЎЛОВ ТАРТИБИ

- 10.1. Нобуд бўлган мол-мулк учун товон пули, суғурта ҳодисаси содир бўлган пайтдаги тиклаш қиймати ёки алмаштириш қийматидан қайси бирининг миқдори камроқ бўлса, ўша миқдор билан чекланади.
- 10.2. Зарарланган мол-мулкни таъмирлаш харажатлари суғурта ҳодисаси содир бўлган пайтдаги унинг ҳақиқий қийматидан ёки алмаштириш қийматидан ошса, у нобуд бўлган ҳисобланади.
- 10.3. Суғурталовчи, агар зарар ушбу Суғурта шартномаси шартларига биноан қопланиши керак бўлса, уни олдини олиш ва камайтириш харажатларини қоплайди.
- 10.4. Мол-мулк шикастланган тақдирда Суғурталовчи таъмирлаш харажатларини уни бевосита суғурта ҳодисасидан аввалги ҳолатига келтириш харажатларини қоплайди.
- 10.5. Битта суғурта ҳодисасидан келиб чиққан барча зарарлар бўйича товон миқдори, шу жумладан зарарни олдини олиш ва камайтириш харажатлари ушбу Суғурта шартномасининг 1-илловасида белгиланган тегишли суғурта товони лимитларидан ошиши мумкин эмас.
- 10.6. Суғурталовчи суғурта ҳодисасидан кейин ҳудудни тозалаш бўйича оқилона харажатларни суғурта пулининг 2% дан ошмаган миқдорда қоплайди.
- 10.7. Зарар етказганликда айбдор шахс томонидан тўлиқ қопланса, Суғурта қилдирувчи суғурта товонига бўлган ҳуқуқини йўқотади.
- 10.8. Агар зарар қисман ёки тегишли суғурта товонидан кам қопланган бўлса, суғурта товони Суғурта қилдирувчи зарар етказилганлиги учун жавобгар шахсдан олинган пулни ҳисобга олган ҳолда тўланади.
- 10.9. Суғурта қилдирувчининг ушбу Суғурта шартномасининг 3.1.2-бандига мувофиқ фуқаролик жавобгарлигини суғурталанган бўлса, Суғурталовчи томонидан суғурта товони даъвои кўриб чиқиш жараёнида белгиланган зарар миқдорида, лекин ушбу Суғурта шартномасининг 1-илловасида кўрсатилган суғурта товони лимитидан ошмаган миқдорда тўланади.
- Агар битта суғурта ҳодисасидан фойдасига ушбу Суғурта шартномаси тузилган бир нечта учинчи шахсга зарар етса, товоннинг умумий миқдори ушбу шахслар ўртасида ҳар бир шахснинг зарари умумий зарар миқдорига бўлган нисбатда мутаносиб тақсимланади.
- 10.10. Суғурта товони суғурта ҳодисаси тан олиниб, комиссия зарар ва тўланиши керак бўлган суғурта товони миқдорини белгилувчи далолатнома 5 (беш) банк куни ичида тўланиши шарт.

11-БЎЛИБ. СУБРОГАЦИЯ

11.1. Суғурта товони тўлангандан кейин (тўланган маблағ чегарасида) Суғурта қилдирувчи ёки фойдасига ушбу суғурта шартномаси тузилган шахснинг зарар етказилганлигида айбдор шахслардан зарар ўрнини қопланишини талаб қилиш ҳуқуқи Суғурталовчига ўтади.

Суғурта қилдирувчи айбдор шахсдан талаб қилиш ҳуқуқини амалга ошириш учун Суғурталовчига зарур барча ҳужжатлари тақдим этиши ва барча ҳаракатларни амалга ошириши шарт.

12-БЎЛИМ. ТОМОНЛАРНИНГ ЖАВОБГАРЛИГИ

12.1. Ўз зиммасига олган мажбуриятларни бажармаганлик ёки тегишли даражада бажармаганлик учун Томонлар Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонун ҳужжатларига мувофиқ жавобгар бўладилар.

12.2. Суғурта товонини тўлаш бўйича ўз мажбуриятларини бажарилишини кечиктирганлиги учун Суғурталовчи Суғурта қилдирувчига ҳар бир кечиктирилган кун учун 0,15% миқдорида, лекин тўланиши лозим бўлган маблағнинг 10% дан ошмаган миқдорда неустойка тўлайди. Неустойка тўлови Суғурталовчини суғурта товонини тўлаш мажбуриятидан озод қилмайди.

12.3. Томонлар ўз мажбуриятларини бажара олмасликлари енгиб бўлмас куч (форс-мажор) оқибатида юзага келса, жавобгарликдан озод бўладилар. Енгиб бўлмас куч шарт-шароити таъсирида бўлган томон бошқа томонни дарҳол бундан шарт-шароит юзага келганлиги ва қанча давом этиши мумкинлиги ҳақида хабардор қилиши шарт.

13-БЎЛИМ. НИЗОЛАРНИ ҲАЛ ЭТИШ ТАРТИБИ

13.1. Ушбу Суғурта шартномасида кўрсатилган масалалар юзасидан баҳслар (низолар), талаблар ёки келишмовчиликлар юзага келган тақдирда томонлар уларни музокара орқали ҳал этадилар.

13.2. Ушбу Суғурта шартномасидан келиб чиққан ёки у билан боғлиқ баҳслар, келишмовчиликлар ёки талабларни музокаралар йўли билан ҳал этишининг имкони бўлмаса, улар Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонун ҳужжатларига мувофиқ ҳал этилади.

14-БЎЛИМ. БОШҚА ШАРТЛАР

14.1. Ушбу Суғурта шартномасига барча қўшимчалар ва ўзгаришлар томонларнинг розилиги билан ёзма шаклда киритилади.

14.2. Томонларнинг ушбу Суғурта шартномасида кўрсатилмаган ўзаро муносабатлари Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонун ҳужжатлари билан тартибга солинади.

14.3. Ушбу Суғурта шартномаси ҳар бир томонда бир нусхадан сақланувчи ва бир хил юридик кучга эга икки нусхада тузилди.

15-БЎЛИМ. ТОМОНЛАРНИНГ ЮРИДИК МАНЗИЛЛАРИ ВА РЕКВИЗИТЛАРИ

СУҒУРТАЛОВЧИ НОМИДАН

«GROSS SUG`URTA KOMPANIYASI» AJZ
Сурхондарё Суғурта Маркази филиали

Манзил: Термиз ш., Б.Авлод кучаси, 12- уй
тел.: +99897 076 03 35
х/р: 2020 8000 2049 4415 7224
АТ "Алокабанк" Сурхондарё филиали
Банк коди: 00401, СТИР: 207 135 501
ИФУТ: 66220

СУҒУРТА ҚИЛДИРУВЧИ

ESHNAZAR INVEST MCHJ

Манзил: Маркентош йуришлари
Тел: 83 488 0210
х/р: 0020800000000043408001
7IF MCHJ 80000
МФО: 00324
ИНН: 302665072

ТОМОНЛАРНИНГ ИМЗОЛАРИ:

СУҒУРТАЛОВЧИ НОМИДАН:

Филиал директори:

Каримов Ф.Т.

м.ў.

СУҒУРТА ҚИЛДИРУВЧИ:



Э. Муҳаммадов

СУҒУРТА ШАРТНОМАСИНИНГ ДЕКЛАРАЦИЯСИ

Суғурта қилдирувчининг номи ва манзили:	"ESHNAZAR INVEST" МЧМЖ 09/12.2022 й №163 сонли шартнома
Пудратчи ёки суб пудратчи(лар)нинг номи:	Қурилиш майдони жойлашган манзил (суғурта ҳудуди): Суғурта объект бўлиб қарилган манзилнинг ҳудудини таъмир қилиш ва қўқондириш ишлари бўлиб таъмир қилинган 800 м ² майдоннинг қурилиш ва реконструкция ишлари
Қурилишнинг шартномавий қиймати:	478 400 000 (Беш юз тўқсон етти миллион саккиз юз кўнрақ миң) сўм
Наф олувчи:	"ESHNAZAR INVEST" МЧМЖ

№	Суғурта предмети
1.1.	Қурилиш ишлари (яқуний ва дастлабки, шу жумладан бунда фойдаланиладиган барча материаллар):
1.2.	Қурилиш материаллари, ускуналар, машиналар, техника, уларнинг эҳтиёт қисмлари ва бошқалар
1.3.	Суғурта ҳодисаси содир бўлгандан кейин ҳудудни тозалаш хажаратлари
1.4.	Суғурта қилдирувчининг учинчи шахслар олдидаги фуқаролик жавобгарлиги таваккалчилиги

2.	Жами суғурта пули, шу жумладан:	398 666 000 (Уч юз тўқсон етти миллион саккиз юз кўнрақ миң) сўм (қурилатган объект қийматининг 80% дан ошмаган миқдорда)
2.1.	Суғурта қилдирувчининг учинчи шахслар олдидаги фуқаролик жавобгарлиги таваккалчилиги бўйича суғурта товони лимити	-----
2.2.	Суғурта ҳодисаси содир бўлгандан кейин ҳудудни тозалаш хажаратлари	суғурта пулининг 2% дан ошмаган миқдорда

3.	бир ҳодиса бўйича суғурта товони лимити	-----
----	--	-------

4.	СУҒУРТА МУКОФОТИ	1500 000 (Беш миллион саккиз юз кўнрақ миң) сўм
4.1.	Суғурта мукофотини тўлаш муддати	Суғурта шартномаси имзолангандан кейин 30 (ўн) иш куни ичида
4.2.	Ўзаро ҳисоб-китоб валютаси	Сўм

5.	Суғурта шартномаси амал қилиш муддати	2022 йил «13» декабр дан 2022 йил «31» декабр гача
6.	Суғурта муддати	Суғурта полисида кўрсатилганидек.

ТОМОНЛАРНИНГ ИМЗОЛАРИ:

СУҒУРТАЛОВЧИ НОМИДАН

 /Каримов Ф.Т.

СУҒУРТА ҚИЛДИРУВЧИ

 О.Музамилов



“ЎЗБЕКИСТАН РЕСПУБЛИКАСИ”
 Сўроҳларде ёилдот хокимининг
 хўриябсарди
 А.Орифов

“Сўроҳларде сўвурғилининес” ДМ бурортмачилинкта ирилдица обекстардини курини, реконструкция киши ва капитал таъмирлатиш видларини
 2022 йил МАНБИЛИ РЎИХАТИ
 2022 йил 9 февралдеги № И-43-24-8-0-К22-сонли, 2022 йил 21 апрелдеги № И-49-96-8-0-К22-сонли қарорлар хамда 2022 йил 25 октябрдеги И-60-237-8-0-К22-сонли қарорли

(Асос: Халқ депутатлари Сўроҳларде ёилот кенгашине 2022 йил 9 февралдеги № И-43-24-8-0-К22-сонли, 2022 йил 21 апрелдеги № И-49-96-8-0-К22-сонли қарорлар хамда 2022 йил 25 октябрдеги № И-60-237-8-0-К22-сонли қарорли)

Жами капитал қўйилмалар, жулдан	1	2	3	4	5	6	7	2022 йил учун капитал сўйилмалар амили										18	19
								2022 йилде фондлаштириш тоширилуши		мур жулдан		Езуғичини бола харакатлари		жўшани, олаши, харакатлари		Мулат/куши			
Жами капитал қўйилмалар, жулдан	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
Илталар бошлангувичи реконструкция																			
1. Тожикистон Республикаси хулдулари “Ворзоб” дарвесиан сув олурчи “Катта хисор” қаналидан гипротехник (сув олурчи) иллотларни таъмирлатиш ишлари	ТТИ, дола	2022-2022 йил	13	43,000	43,000	43,000	43,000	500,000	457,000	43,000	22,612		13	500,000			№ 32760 25.02.2022 й.	Лог № 55449 28.03.2022 й.	Механика ХС
2. Тожикистон Республикаси “Катта хисор” қаналини лоқидан толашти “Хоник” дарвесиан гипротехник иллотини ҳамда мелитортив коллкторлардини реконструкция киши ва курини	Қанал, км Коллктор, км ТТИ, дола	2022-2022 йил	1,6 2,8 1	74,885	74,885	74,885	74,885	955,000	880,115	74,885	38,392		13	955,000			№ 44551 30.05.2022 й.	Лог № 105049 20.06.2022 й.	“Узунмаксус сулудрат” МТДЖ
3. Сўроҳларде ёилотни қорваллонгостон Республикаси Тахиятош туманида ақратилган хулдуларини ирилдица-мелиторрати таъмирлатиш ишлари	ТТИ, дола	2022-2022 йил	1					1 400,000	1 300,000	100,000			1						
4. Қорваллонгостон Республикаси Тахиятош тумани “Найманку” МФЙ да жойлаштиган Тахиятош сув хўжалиги бўлими мазмурий биносини капитал таъмирлатиш ишлари	Мазмурий бино, дола	2022-2022 йил	1						641,300				1						
5. Сўроҳларде ёилотни Термиз тумани “Муқтазиллик” МФЙ хулдулиан учурчи “Ш-2” икки сўриги таъмирлатиш 800 метр қисмини реконструкция киши (бетон колпачи)	Қанал, км	2022-2022 йил	0,8	21,600	21,600	21,600	21,600	500,000	478,400		21,600	6,600	1	500,000			№ 74677 17.11.2022 й.	Лог № 200106 05.12.2022 й.	“Шинавар Инвест” МТДЖ

Эслатиқ: “Объект қайташтириш иккинчи ва кетинси видларни учун қайта хисоблаштиш, куринишине учумий қиймати (+устун) қайта хисоблаштиш хисобат олган ҳолда курстандиқ илтиш ва кетинси видларни учун қайта хисоблаштиш белгиленган тартибда амалга оширилади ва эсорди компанияларнинг билганине 1 апрелдеги кўриб чикиш учун маълум этилади.





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Сурхондарё вилояти

190100, Termiz shahri , Taraqqiyot ko'chasi, 42-uy, Termiz shahri, AT "Tyron" bank Tel-Fax:
(376)-22-3-24-87, 22-3-06-42, 22-3-24-75 Mail: surxonekspertiza@mail.ru www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: NURALIYEV NURBEK BAXTIYOROVICH

Sana:17-11-2022 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 74677

Obyekt nomi « Surxondaryo viloyat "Termiz tumani "Mustaqillik" MFY hududida SH-2 kanal in 800metrni rekonstruksiya qilish obyekt i ishchi loyihasi bo'yicha»

Buyurtmachi - "SURXONDARYO SUV QURILISH INVEST" DM

Bosh loyihachi - "Nurobod projekt" MCHJ

Litsenziya AL-000705 06.05.2020 yil O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi

Moliyalashtirish manbai - Budget mablag'lari

Bosh pudratchi - Erkin tanlov savdo natijalariga ko'ra aniqlanadi

Qurilish turi Rekonstruksiya

Murojaat raqami: № 64969

1. Loyihalash uchun asos

1. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2022-yil 25-oktabrdagi VI -60-237-8-0-K/22 sonli qarori.
2. Buyurtmachining 2022-yilda tasdiqlagan loyihalashga topshirig'i.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

Elektron yo'nalishda taqdim qilingan loyiha hujjatlari, umumiy tushuntirish yozuvi, ishchi chizmalar, smeta hujjatlari, qurilish ishlarini tashkil qilish umumiy bitta kitobda.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

Ishchi loyiha QMQ 2.06.03-97 va SHNQ 2.06.03-12 Sug'orish tizimlari loyihalash meyorlari" talablariga muvofiq bajarildi,

Loyihada kanalda suv filtratsiyasini kamaytirish maqsadida loyihalashtirilayotgan Termi tuman "Mustaqillik" MFY hududida SH-2 kanal in 800metrni rekonstruksiya qilish .obyektida kanal qurilishining asosiy ko'rsatkichlari; suv beadigan maydon 217.0gektarkanal uzunligi 800m qiyaligi M-1.5, beton qalinligi0.10m,GTI 1dona asosiy ish hajmlari qazish 5774m3, ko'mish 3411m3,qo'lda ko'mish 30m3, beton V-15 440m3. RO150x150 suv to'sish inshooti 1 dona

3.1. Qurilish ishlarining davomiylik muddati.

- Qurilish ishlarini bajarish muddati qurilishni tashkillashtirish loyihasiga asosan 6 oyni tashkil qiladi, shundan15 ish kun muddat tayyorgarlik ishlariga kerak bo'ladi.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

6. Ekspertiza natijalari.

- 6.1. Ekspert xulosasining sharhlari va tavsiyalariga ko'ra, buyurtmachi va ishlab chiquvchi obyekt qurilishining taxminiy qiymati bo'yicha quyidagi asosiy qo'shimchalar va tuzatishlarni kiritdilar:
- Loyiha topshirig'i buyurtmachi tomonidan tasdiq landi;
- rejadagi kanal va GTIlar berilgan ko'rsatmalarga asosan to'g'irlandi meyorlariga asosant suvlarining bir meyorda o'tishini ta'minlaydi;
- smetada qabul qilingan ish hajmlari chizmalar bilan muvofiqlashtirildi;

6.2. Ob'yektni qurish xarajatlarini hisoblash.

Ob'yekt qurilishining qiymati QQS miqdori bilan **504 072,730ming**.so'm taqdim qilingan, loyihani to'g'irlash natijalariga ko'ra **4 072,730ming**.so'mga kamaytirildi va QQS bilan **500 000,000ming**.so'mni, tashkil qildi,

shu jumladan:

qurilish montaj ishlari 420 794,963ming.so'm.

qo'shimcha qiymat solig'i 63 119,245ming.so'm.

buyurtmachining boshqa xarajatlari 16 185,792ming.so'm.

Qurilish narxining kamayishiga ayrim ish turlari hajmlariga va qurilish materiallar narxlariga hamda lokal resurs element normalarga aniqlik kiritilganligi natijasida erishildi.

6.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qaroriga 1-ilova, III bob 29-band va SHNK 1.03.06-13da "Davlat ekspertizasiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlari sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (loyihalash jarayonida taqdim etilgan dastlabki loyihalash ma'lumotlarining ishonchliligi nuqtai nazaridan) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi.

6.4. Buyurtmachining boshqa xarajatlari miqdorini 4.01.16-09 sonli SHNK talablariga asosan aniqlash buyurtmachi va bosh loyihachi zimmasiga yuklatiladi.

6.5. Buyurtmachiga va ishlab chiqaruvchiga, qurilish boshlanishidan oldin: loyiha barcha manfaatdor idoralar bilan kelishilsin;

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Termiz tumani "Mustaqillik" MFY hududida SH-2 kanalini 800metrni rekonstruksiya qilish obyektini ishchi loyihasi kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-iyundagi №261-sonli qarori va SHNK04.01.16-09ga muvofiq, qurilishning tavsiya qilinayotgan qiymati pudrat shartnomasi tuzish uchun asos bo'la olmaydi pudratchini aniqlash erkin savdolarining boshlang'ich qiymatini aniqlash huquqi buyurtmachi zimmasiga yuklatiladi.

Bosh mutaxassis: MADJITOV ULUGBEK ABDUVOSI O'G'LI

Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 200106 на приобретение Сурхондарё вилояти Термиз тумани “Мустақиллик” МФЙ ҳудудидан ўтувчи “Ш-2” ички суғориш тармоғининг 800 метр қисмини реконструкция қилиш (бетон қоплама).

Способ проведения электронный

Дата 05.12.2022

Время рассмотрения 05.12.2022 15:34

Закупочная комиссия O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI SURXONDARYO SUV QURILISH INVEST Davlat unitar korxonasi, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	AVAZOV SALIM PANJIYEVICH	Директори	"Сурхондарёсувқурилишинвест" ДМ
Секретарь комиссии	SHAYMANOV BOBUR KARIMOVICH	Бўлим бошлиғи	"Сурхондарёсувқурилишинвест" ДМ
Член комиссии	BAKIROV G‘AYRAT ABDUJALILOVICH	Бўлим бошлиғи	"Сурхондарёсувқурилишинвест" ДМ
Член комиссии	JULLIYEV OLIM DUSALIYEVICH	Бош муҳандис	"Сурхондарёсувқурилишинвест" ДМ
Член комиссии	QULMATOV SHOYMARDON QUSHOQOVICH	Бош муҳандис	"Сурхондарёсувқурилишинвест" ДМ
Член комиссии	MAXMUDOV TO‘LQIN YULDOSHEVICH	Boshliq o‘rinbosari	"Amu-Surxon" ITHB

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 05.12.2022 года № лота 200106.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.техничко-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 60

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Строительно монтажные работы
Подробное описание	Сурхондарё вилояти Термиз тумани “Мустақиллик” МФЙ ҳудудидан ўтувчи “Ш-2” ички суғориш тармоғининг 800 метр қисмини реконструкция қилиш (бетон қоплама). объектни ўз вақтида сифатли қилиб бажариш шарт
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	483 913 480.00
Стартовая сумма	483 913 480.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Лойихани бажариш учун зарур булган 6 та дан кам булмаган? Купи билан 20 йил олдин ишлаб чиқарилган шахсий (ёки лизинг шартномаси асосида) қурилиш машина ва механизмларини мавжудлиги (ижара шартнома асосидаги қурилиш техникаларининг баллари 30% камайтирилади) Лойихани бажариш учун зарур булган 10 бирликдан кам булмаган кичик механизация воситаларини мавжудлиги**

Тип: Текстовое значение

Описание: Талаб этилади

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ESHNAZAR INVEST MCHJ	20	20	20	Экспертная		
ФАХРИДДИН МАЪ ЧЕКЛАНГАН ЖАМИЯТ	20	20	20	Экспертная		

Критерий №2 Курилиш майдонини курганлиги ва урганиб чикилганлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Талаб этилади

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ESHNAZAR INVEST MCHJ	2	2	2	Экспертная		
ФАХРИДДИН МАЪ ЧЕКЛАНГАН ЖАМИЯТ	2	2	1	Экспертная		

Критерий №3 Туловга кодирлик ёки коплаш коэффиценти 1,25 ва ундан кун Туловга кодирлик ёки коплаш коэффиценти Объектнинг буюртмачи белгиланган бошлангич нархининг 20 %гача миқдордаги айланма маблаглар мавжудлиги (хизмат килувчи банк томонидан тасдиқланган айланма маблаглари мавжудлиги тугрисидаги маълумотнома асосида бахоланади)

Тип: Текстовое значение

Описание: Талаб этилади

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ESHNAZAR INVEST MCHJ	13	13	13	Экспертная		
ФАХРИДДИН МАЪ ЧЕКЛАНГАН ЖАМИЯТ	13	13	13	Экспертная		

Критерий №4 Иш стажи 3 йилдан кам булмаган олий маълумотли курилиш мутахас-сислигига эга булиши мажбурий раҳбарлардан 1 киши мавжудлиги. 5 йил иш стажига эга 2 кишидан кам булмаган дипломга эга инженер-техник ходимларни мавжудлиги. (участка бошликлари ва мастерлар) Ишлаб-чикариш техника булимида 5 йил иш стажига эга дипломи 1 та мутахасисни мавжудлиги. Доимий равишда ишловчи 10 тадан кам булмаган малакавий ишчилар мавжудлиги. Мехнатни муҳофаза қилиш ва техник хавфсизлик ходимлари 1 киши мавжудлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Талаб этилади

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ESHNAZAR INVEST	19	19	19	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
МСНҲ						
ФАХРИДДИН МАЪ ЧЕКЛАНГАН ЖАМИЯТ	19	19	19	Экспертная		

Критерий №5 Танловдагига ухшаш ишларни уз кучи билан бажариш: йилига N (N- Буюртмачи бошлангич нархнинг 50%) сум ва ундан куп. (хар бир йил 5 балл билан бахоланади) Танлов савдодагига ухшаш профил буйича охирги йили уз кучи билан бажариш.

Тип: Текстовое значение

Описание: Талаб этилади

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ESHNAZAR INVEST МСНҲ	25	25	25	Экспертная		
ФАХРИДДИН МАЪ ЧЕКЛАНГАН ЖАМИЯТ	25	25	25	Экспертная		

Критерий №6 Асосий воситаларнинг колдик киймати 1000,0 млн. сум ва ундан куп Муддати утган кредиторлик карздорлиги мавжуд эмаслиги Утган йилда 50,0 млн.сум фойдаси (солик тулангунга кадар) мавжудлиги Иш хаки фонди 50,0 млн. сум

Тип: Текстовое значение

Описание: Талаб этилади

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ESHNAZAR INVEST МСНҲ	21	21	21	Экспертная		
ФАХРИДДИН МАЪ ЧЕКЛАНГАН ЖАМИЯТ	21	21	21	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
ФАХРИДДИН МАЪ ЧЕКЛАНГАН ЖАМИЯТ	483 913 480.00	483 913 480.00 UZS	483 913 480.00	00.00	483 913 480.00	02.12.2022 15:42:17	19.77213
ESHNAZAR INVEST МСНҲ	483 913 480.00	478 400 000.00 UZS	478 400 000.00	00.00	478 400 000.00	02.12.2022 15:30:22	20

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
ФАХРИДДИН МАЪ ЧЕКЛАНГАН ЖАМИЯТ	79.2	19.77213	98.97213
ESHNAZAR INVEST MCHJ	80	20	100

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 200106 от 05.12.2022 года на приобретение Сурхондарё вилояти Термиз тумани “Мустақиллик” МФЙ худудидан ўтувчи “Ш-2” ички суғориш тармоғининг 800 метр қисмини реконструкция қилиш (бетон қоплама). определила победителем:

ESHNAZAR INVEST MCHJ
302665072

и резервный исполнитель: ФАХРИДДИН МАЪ ЧЕКЛАНГАН ЖАМИЯТ (203660629)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	AVAZOV SALIM PANJIYEVICH	Согласен	
Член комиссии	BAKIROV G'AYRAT ABDUJALILOVICH	Согласен	
Член комиссии	JULLIYEV OLIM DUSALIYEVICH	Согласен	
Член комиссии	QULMATOV SHOYMARDON QUSHOQOVICH	Согласен	
Член комиссии	MAXMUDOV TO'LQIN YULDOSHEVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП